



TARAKKIYET TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-24, (December) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

BERDALIYEVA Sevara Damirovna

Alfraganus universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi

o‘qituvchisi

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI AXLOQIY-FALSAFIY G‘OYALAR

Yusuf Xos Hojib – o‘rta asrlar O‘zbekistonining buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Uning “Qutadg‘u bilig” asari axloqiy merosni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarda u insoniylik, axloq, adolat va ma’naviyat masalalarini chuqur tahlil etadi. U buyuk shoir va davlat arbobi sifatida tanilgan bo‘lib, o‘z zamonasining asosiy ilmlarini mukammal o‘rgangan. Arab va fors tillarida yaxshi so‘zlasha olgan. “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat uning davrida, balki bugungi kunda ham keng tanilgan. Yusuf Xos Hojib nafaqat mutafakkir va faylasuf, balki davlat arbobi hamdir. U o‘z asarida huquqiy, siyosiy, falsafiy va ijtimoiy masalalarga yechimlar taklif etgan. Adib olamning yaratilishini faqat Allohga bog‘lab, bu masalalarni chuqur yoritgan.

“Qutadg‘u bilig” asari jahon olimlari e’tiboridan chetda qolmagan, jumladan, A.Jaubert, H.Vamberi, V.Bartold, V.Grigorev, V.Radlov, A.Kononov, S.Malov, O.Pritsak, A.SHcherbak, E.Tenishev, I.Steblova kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan [2].

Vatanimiz olimlaridan, “Qutadg‘u bilig” asarini: Q.Karimov, A.Rustamov, G‘.Abdurahmonov, S.Mutalibov, Q.Sodiqov, Q.Mahmudov, B.To‘xlijev, Q.Omonov kabi tadqiqotchilar o‘rganishgan. Bizga ma’lumki, turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini, adabiyotini o‘rganish, jadidchilar ijtimoiy-siyosiy harakatini a’zolarini ham chetda qoldirmagan, jumladan, jadidchi olim, birinchi o‘zbek professori, A.Fitratning xizmatlarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim [5].

“Qutadg‘u bilig” – turkiy xalqlar islomni qabul qilganlaridan so‘ng yaratilgan ilk adabiy asar hisoblanadi. Turkiy yozma adabiyotining bebaho asarlaridan biri bo‘lgan Qutadg‘u bilig asari buyuk mutaffakir Yusuf Xos Hojib tomonidan 462-yilda yozib tugallangan (grigorian kalendari bo‘yicha: 1069/1070). “Qutadg‘u bilig” turkiy qoraxoniylar tilida “Saodatga eltuvchi bilim” degan ma’noni anglatadi. Qutadg‘u bilig – nafaqat adabiy asar, balki u siyosiy qomus hamdir. U davlatni qanday boshqarish kerakligi masalasiga qaratilgan. Qutadg‘u bilig turkiy xalqlar davlat boshqaruvini juda chuqur anglash va davlatni oqilona va yaxshi boshqarish saodat manbasi ekanligiga ishonch hosil qilganliklarini ko‘rsatadi. Shubhasiz, olimlarning shunday buyuk asar to‘g‘risida biror yangilik aytishlari uchun har doim sabab topiladi [6].

“Qutadg‘u Bilig” nafaqat bir asar, balki saodatga olib boruvchi bilim manbai sifatida abadiy qadrini saqlaydi. U “6520 baytdan iborat, masnaviy (ya’ni aruzning “mutaqoribi musammani mahzuf”) vaznida yozilgan [1].

“Qutadg‘u bilig” asari Yusuf Xos Hojib haqida ma’lumot beruvchi yagona asar sifatida ko‘riladi. Asardan xulosa qilishimiz mumkinki, o‘z davrining zarur, foydali bilimlarini mukammal bilgan Yusuf Xos Hojib o‘zi yashayotgan vaqtning madaniy, ma’naviy merosini avlodlarga qoldirish uchun harakat qilgan. Asar turkiy adabiyotni yorqin kelajak taraqqiyoti sari tashlangan ilk qadamlari bo‘lib, ulkan va islomiy turkiy adabiyotni boshlanishiga yordam bergan. Asar Qoshg‘arda nihoyasiga yetdi va o‘zining nodir san’ati bilan ajralib turib, davrning madaniyati, ma’rifati, ilm-fan, urf-odat va an’analarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu asar o'sha paytdagi hukmdor Tavg'och Bug'roxonga hadya etilgan. Hukmdor, rahmati sifatida, asar muallifini "Xos Hojib", ya'ni "Eshik og'asi" unvoni bilan taqdirladi. Shundan so'ng, shoir Yusuf Xos Hojib nomi bilan mashhur bo'lib qoldi. "Qutadg'u bilig" dostoni, mazmuni va tuzilishi jihatidan, mintaqadagi adabiyotning shakllanishining ilk bosqichlaridan biri bo'lib, turkiy tilda yozilgan islom ma'naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Ushbu asarda VIII-IX asrlarda yashagan Abdulhamid al-Kotib, Ibn al-Muqaffa, Adib Ahmad Yugnakiy, al-Johiz kabi yirik adiblar tomonidan asos solingan adabiyot ilmi, Abu Nasr al-Forobiyning ijtimoiy-axloqiy falsafasi, "Shohnoma" va turk xoqonlarining yodnomalari, shuningdek, mintaqa xalqlarining boy ma'naviy merosi o'z aksini topgan. Eng muhim jihati, bu asar islom mintaqasining ma'naviy qomusi sifatida katta ahamiyatga ega. Firdavsiy "Shohnoma"si mintaqa xalqlarining o'tmish tarixini badiiy tasvirda haykallasa, Yusuf Xos Hojib asari o'z davrining ijtimoiy va madaniy holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida o'z ifodasini topadi [3]".

Kitobda ko'tarilgan falsafiy muammolar doirasi nihoyatda keng va rang-barangdir. Olam va uning tuzilishi, tabiatning sirli universumi, ongning qudrati, insonning mohiyati, hayotning mazmuni, o'lim va mangulik, bilish jarayoni, o'quv va uquv, kasb-hunar egallash, oila va tarbiya masalalari – bularning barchasi muallifning chuqur mushohadasalariga asoslanadi.

Asar, adibning turmush tarzi va hayotiy pozitsiyasining falsafiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu shuningdek, murosa falsafasining ilk yorqin namunasidir. Unda Sharq peripatetiklarining ta'siri sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Xususan, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning g'oyalari asarda o'z aksini topgan. Tasavvuf falsafasining ham o'z o'rnini bor, u muallifning asaridagi chuqur ruhiy izlanishlarga to'g'ri keladi.

Muallifning falsafiy qarashlarida pozitivizm elementlari ham ko'rinadi. O'rta asr mutafakkirlarining dunyoqarashidagi realistik g'oyalar yorqin bir nur sifatida porlaydi, o'quvchini fikr va his-tuyg'ularga to'ldirib, hayotning ma'nosini qidirishga undaydi. Bu asar, shubhasiz, nafaqat o'rta asrlarning, balki insoniyat tafakkurining boy merosi sifatida qadr topadi.

Yusuf Xos Hojib, inson muammolarini va insoniylik masalalarini muhokama qilib, hayot mazmunini o'lim va abadiylik bilan bog'laydi. U, odam hayoti qisqa va cheklangan ekanligini, lekin shu cheklov ichida insonning maqsadi – o'z nomini abadiylashtirish, ezgu fazilatlarini va amallari orqali, isbotlashga intiladi. Kimning nomi mangu bo'lsa, uning o'zi ham abadiydir; bu haqiqat hayotning eng chuqur mohiyatidir. Asar "Axloq va odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan, jam qilgan qomusdir [4]".

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan bir narsani aniq aytish mumkin: darhaqiqat, asar qoraxoniylar davrining bosh qomusi, huquqiy asosi darajasidagi manbadir. Asarning ahamiyatli jihati, o'rta asrlarda davlat qonunlarini adabiy shaklda, o'git, pand-nasihat, hikoya va rivoyat ko'rinishida badiiy tarzda yoritish an'anasini sharqda Yusuf Xos Hojib boshlab berganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitrat A. Qutadg‘u bilig // Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi. H.Boltaboev). 2-jild. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000. – B. 336.
2. Hamidov Z. “Yusuf Xos Hojibning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari”. ADU Ilmiy xabarnomasi, №2, 2017. – B. 36-39.
3. N.Marar, N.Niyozova. “Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig “asarida tarbiya masalasi”. Международный научный журнал № 7(100), часть 1 «Научный импульс» Февраль, 2023. – 740-743 b.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). 2-nashri. – Toshkent: Fan, 1972. – 964 b.
5. Orzuqulov A.O. Юсуф Хос Ҳожиб маънавий мероси тадқиқотчилар нигоҳида.
6. Эрол Озвар, Мармара университети ректори. Жаҳон туркологиясининг буюк обидаси “Қутадғу билиг” Ва уни ўрганишининг долзарб масалалари халқаро конференция тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 6.